



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH DAVLAT QO'MITASI

NAMANGAN VILOYATI EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH BOSHQARMASI

160108, Namangan sh., Hiva ko'chasi 1-uy. tel: 69-227-90-20, faks: 69-227-90-20
Elektron manzil: namangan@uznature.uz E-xat: namangantabiat-1@exat.uz

Davlat ekologik ekspertizasining X U L O S A S I

Obyekt: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, Shimoliy aylanma yo'li, Isoqxon To'ra Ibrat MMTP xududida O'zbekiston Respublikasi Hidrometrologiya xizmati markaziga "Meteorologik radiolokatr stansiyasi" qurish uchun unishlab chiqilgan "Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasi".

Buyurtmachi: "KELAJAK-S" XK

STIR: 202430660

Toifa: IV (14-band)

Loyihachi: "ZIYOVUDDIN SANOAT LOYIHA" MChJ

"KELAJAK-S" XK direktori **I.Uralovga**

Nusxasi: To'raqo'rg'on tumani Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi boshlig'i **O.Mamataliyevga** (nazorat uchun)

"Davlat ekologik ekspertizasi markazi" DUK Namangan viloyati filiali, Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, Shimoliy aylanma yo'li, Isoqxon To'ra Ibrat MMTP xududida O'zbekiston Respublikasi Hidrometrologiya xizmati markaziga "Meteorologik radiolokatr stansiyasi" qurish uchun ishlab chiqilgan "Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasi" taqdim etilgan.

To'raqo'rg'on tumani, Shimoliy aylanma yo'li, Isoqxon To'ra Ibrat MMTP xududida O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markaziga «Meteorologik radiolokator stansiyasi» qurish uchun tanlangan yer maydoni 5407,8 m² ni tashkil qiladi.

Ushbu yer maydoni shimol tomonidan - avtomobil yo'li bilan, g'arb va sharq tomonidan - ekin yer maydonlari bilan va janub tomonidan - qisman ekin yer maydonlari bilan, qisman avtomobil yo'li bilan chegaralangan.

Tanlangan yer maydonining reliefi tekis, umumiy qiyalik shimoldan janub tomonga yo'nalgan. Tuproq qatlami shag'al aralash jinslardan iborat. Tanlangan yer maydonida va yaqin atrofida ochiq suv xavzalari hamda daraxtlar mavjud emas. Yer osti suvlari 14-16 metr chuqurlikda joylashgan. Hududdagi shamolning ustuvor yo'nalishi shimoliy bo'lib, takrorlanuvchanligi 25 foizni tashkil etadi. Eng yaqin aholi yashash xonadonlari tanlangan yer maydonining shimol tomonidan 360 metr masofada joylashgan. Obyektning geografik koordinatalari: 41°1'42.56" 71°30'57.17", 41°1'42.34" 71°30'55.29", 41°1'39.92" 71°30'53.66", 41°1'35.16" 71°30'53.83", 41°1'33.95" 71°30'54.68", 41°1'36.79" 71°30'56.93".

Obyekt hududi balansi:

Bino-inshootlar maydoni – 231,98 m²

Ko'kalamzorlashtirilgan maydon – 2059 m²;

Asfalt yo'l va yo'laklar maydoni – 2983,1 m²;

Umumiy maydon – 5407,8 m².

Obyekt hududida 1 qavatli maydoni 100 m² bo'lgan kuzatuv binosi va 12 m² bo'lgan radiolokator inshooti qurish rejalashtirilgan. Obyektda radiolokator o'rnatish uchun 4x3 metr bo'lgan joyni 4 metr chuqurlikda kavlanadi. Obyektda transheya qazish ishlarini ekskavatorida amalga oshirilada, grunt massalarini surishda va surib tekislab zichlashda ekskavatoridan foydalaniladi. Ta'mirlash va qurilish davrida ishlatiladigan barcha transport vositalari ijara shartnomasi asosida ishlatilishi rejalashtirilgan.

Obyekt 1 yilda 365 kun, sutkada 24 soat ishlaydi. Bu yerda jami 5 ta yangi ish o'rne yaratilishi ko'zda tutilgan.

Obyekt hududidagi binolarni qish mavsumida isitish va issiq suv uchun zamonaviy elektr asboblardan (ariston, konditsioner) foydalanish ko'zda tutilgan. Kuzatuv binosi ichida oshxona mavjud bo'lib, ovqat tayyorlash uchun elektr asboblardan foydalanish ko'zda tutilgan.

Obyektda suvdan asosan Xo'jalik-ichimlik va xo'jalik-maishiy maqsadlarida foydalaniladi. Xo'jalik-ichimlik va xo'jalik-maishiy maqsadlarda foydalaniladigan suvni hududdagi mavjud ichimlik suv tarmog'idan tegishli tashkilotlarning ruhsati bilan olinishi rejalashtirilgan. Obyektning faoliyati davomida jami 0,0219 ming m³/yil miqdorda suv sarf bo'ladi. Obyektning faoliyati natijasida 0,0219 ming/m³ miqdorida oqava suvlari hosil bo'ladi. Obyekt joylashgan hududni o'rganib chiqilganda u yerdan kanalizatsiya tarmog'i o'tmaganligi aniqlangan. Obyektning faoliyati natijasida hosil bo'ladigan oqava suvlarni to'plash uchun hajmi 10 m³ bo'lgan temir-beton o'ra tashkil qilish rejalashtirilgan. Temir-beton o'raga to'plangan oqava suvlarni 1 yilda 3 marotaba tuman tozalov inshootga olib borib tashlanadi.

"Radiolokatr uskunalari o'rnatish hamda ko'zatuv stansiya bino-inshootlari"ni qurilishi natijasida bir yilda jami 17,4788 tonna/yil miqdorida turli xildagi chiqindilar hosil bo'ladi. Shundan, 16,6571 t/yil miqdorida xavflilik sinfi 4 bo'lgan qattiq maishiy chiqindi hosil bo'ladi. Qattiq maishiy chiqindilarni vaqtinchalik metall qutida saqlanib, bir haftada bir marotaba tuman hududidagi markaziy chiqindixonasiga chiqariladi. ishchilarning faoliyati natijasida 0,0215 t/yil miqdorida xavflilik sinfi 4 bo'lgan maxsus kiyim chiqindisi hosil bo'ladi. Maxsus kiyim chiqindisini omborda vaqtincha saqlanib, lattani qayta ishlash korxonasiga topshirilishi rejalashtirilgan. 0,5 t/yil miqdorida xavflilik sinfi 5 bo'lgan qog'oz chiqindisi hosil bo'ladi. Chiqindini omborxonada vaqtincha saqlanib, to'planishiga qarab makulaturaga topshirish rejalashtirilgan. 0,3 t/yil miqdorida

xavflilik sinfi 4 boʻlgan polietilen plyonka chiqindisi hosil boʻladi. Chiqindini omborxonada vaqtincha saqlanib, polietilenni qayta ishlash korxonasiga topshirilishi rejalashtirilgan. 0,0002 t/yil miqdorida xavflilik sinfi 4 boʻlgan svetodiodli lampa chiqindisi hosil boʻladi. Chiqindini plastmassani qayta ishlovchi korxonalarga shartnoma asosida topshirilishi rejalashtirilgan.

Mazkur obyektни qurilishi va faoliyati davomida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha quyidagi ekologik talablarning bajarilishi lozim:

“Radiolokatr uskunalarini oʻrnatish hamda koʻzatuv stansiya bino-inshootlari”ni qurilishida QMQ, ShNQ va SanPin talablariga qatʼiy rioya qilinsin;

yer osti suvlarini ifloslanishidan saqlash maqsadida betonlangan handak qurilsin va toʻplangan oqava suvlarni oʻz vaqtida suv tozalash inshootlariga tashib ketilishini taʼminlansin, handakning germetikligini vaqti-vaqti bilan tekshirib turilsin;

tanlangan yer maydoni hamda atrofidagi daraxtlar va oʻsimliklarni Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻsimliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida”gi Qonuni va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 20 oktyabrdagi 290-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oʻsimlik dunyosi obyektlaridan foydalanish sohasida ruhsat berish tartib-taomillaridan oʻtish toʻgʻrisida”gi Nizom hamda 2019 yil 17-yanvardagi 43-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat oʻrmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxtlar va butalardan foydalanilishini tartibga solish va ulardan foydalanish sohasida ruxsat berish tartibini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi Nizom bandlariga rioya etilsin va kesilishiga yoʻl qoʻyilmasin;

radiolokatr uskunalarini oʻrnatilishi, rekonstruksiya qilinishi, tamirlanishi yoki buzilishi natijasida hosil boʻladigan chiqindilarni Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28 yanvardagi 40-sonli qaroriga asosan utilizatsiya qilish va qayta ishlashga yoʻnaltirilsin, poligonlarga joylashtirish choralari koʻrilsin;

faoliyati davrida hosil boʻladigan chiqindilarni “Chiqindilar toʻgʻrisida”gi konun talablariga asosan vakolatli tashkilotlar bilan shartnoma asosida belgilangan tartibda olib chiqib ketish, joylashtirish va utilizatsiya qilish choralari koʻrilsin;

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi uchun Buyurtmachi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar boʻlishini eslatib oʻtamiz.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 maydagi PQ-3730-sonli va Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktyabrdagi 787-sonli qarorlariga asosan, chiqindilarni toʻplash shahobchalarining qurilishi koʻzda tutilganligi, ularni joylashtirishda aholi uy-joylariga nisbatan masofasi, chiqindi toʻplash shahobchalariga oʻrnatiladigan chiqindi qutilarini germetik boʻlishi va boshqa maqsadlarga alohida eʼtibor qaratgan holda chiqindixona tashkil qilinishi shart.

“Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DUK Namangan viloyati filiali, Namangan viloyati, Toʻraqoʻrgʻon tumani, Shimoliy aylanma yoʻli, Isoqxon Toʻra Ibrat MMTP xududida Oʻzbekiston Respublikasi Hidrometrologiya xizmati markaziga “Meteorologik radiolokatr stansiyasi” qurish uchun ishlab chiqilgan “Atrof-muhitga taʼsir koʻrsatilishi toʻgʻrisidagi bayonot loyihasi”ni mazkur loyihada koʻzda tutilgan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini va ushbu xulosada taʼkidlab oʻtilgan ekologik talablarni bajarish sharti bilan roʻyobga chiqarishga **rozilik beradi.**

Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi loyihada koʻzda tutilgan ishlarni roʻyobga chiqarish mumkinligiga berilgan boʻlib, qonun doirasida boshqa tegishli ruhsatnomalar olishni bekor qilmaydi va ularning oʻrnini bosa olmaydi.

Ushbu ekologik ekspertizasi xulosasida koʻrsatib oʻtilgan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish vazifasi – Toʻraqoʻrgʻon tumani Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boʻlimi boshligʻi **O.Mamataliyevning zimmasiga yuklatiladi.**

Boshqarma boshligʻi:

A.Jalilov

Korxona Direktori:
A.Xaydarov

Baj: E.Raximov
Tel: (69) 233-19-33

Хулоса рақами 01-19/07-750
Хулоса санаси 16.08.2022

Текшириш учун



Хужжат рақами: 28112
Текшириш учун пароль: 75889